



**BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI MISOLIDA )  
O'QITISHNING MUHIM OMILI VA PEDADOG -USTOZLARNING O'RNI**

O'zbekov Umidjon Narzullo o'g'li

Termiz davlat pedagogika institute Xorijiy til va adabiyoti fakulteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo'nalishi talabasi

[Uzbekovumidjon0@gmail.com](mailto:Uzbekovumidjon0@gmail.com)

**Annatatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy til ya'ni ingliz tilini nima sababdan o'qitish zarurligi, ahamiyati va nutqiy ko'nikmalari haqida bat afsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, o'quv vositalari, o'qituvchi va o'quvchi ta'limiy ko'priq vositalari va o'quv jarayonidagi vaziyat va pedagog -ustozlarning o'qitish jarayonidagi o'rni haqida aniq ko'rsatilgan va muammoli savollar yechimiga taklifiy fikrlar berilgan.*

**Abstract:** This article provides detailed information about the necessity, importance, and speaking skills of teaching a foreign language, namely English, to elementary school students. Also, educational tools, teacher and student educational bridging tools and the situation in the learning process and the role of pedagogues-teachers in the learning process are clearly indicated and suggested solutions to problematic questions are given.

**Аннотация:** В данной статье представлена подробная информация о необходимости, важности и навыках говорения в обучении иностранному языку, а именно английскому, учащихся начальной школы. Также четко обозначены средства обучения, средства воспитательного сближения учителя и ученика и ситуация в процессе обучения и роль педагогов-педагогов в процессе обучения и даны предлагаемые варианты решения проблемных вопросов.

**Kalit so'zlar:** CEFR, chet tilini o'qitish, o'qitish mazmuni, til materiali, til birligi, nutq mavzusi, o'qitish vositasi, darslik majmu'a, bilim, malaka, ko'nikma, pedagogik o'r'in, innovatsion ta'lim texnologiyalari, kasbiy madaniyat.

**Key words:** CEFR, foreign language teaching, teaching content, language material, language unit, topic of speech, teaching tool, textbook, knowledge, competence, skill, pedagogical position, innovative teaching Education technologies, professional culture.

**Ключевые слова:** ЦЭИФ, обучение иностранному языку, содержание обучения, языковой материал, языковая единица, тема речи, средство обучения, учебник, знание, компетенция, умение, педагогическая позиция, инновационные образовательные технологии, профессиональная культура.

## KIRISH

Har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yerosti va yerusti tabiiy boyliklari, harbiy qudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki, birinchi navbatda, o'zining yuksak madaniyati va ma'naviyati bilan kuchlidir. Shu boisdan respublikamizda sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirish maqsadida ta'lim tizimini tubdan yangilash va isloh etish



borasida miqyosi va ko'lamiga ko'ra ulkanishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonning ko'pmadaniyatli va ko'ptilli «landshafti» shaxsning til kompetentligini rivojlantirishga samarali asos bo'lmoqda.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

2012-yil 10-dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875-son qarorida yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari va axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun imkoniyatlar yaratish bosh maqsad etib belgilangan. Ta'lim maqsadi ijtimoiy-pedagogik va lingvodidaktik tushuncha sifatida ingliz tili o'qitishga tatbiqan quyidagicha ta'riflanishi mumkin: umumta'limiy yo'nalishdagi o'quv predmetlaridan bo'lmissing ingliz tilini o'rganishga jamiyat va davlatning ijtimoiy buyurtmasi shaklidagi ta'lim mazmunini belgilash, o'qitish jarayonini tashkil etish va muayyan natijalarga erishishni oldindan aniqlash vositasidir. Maktabda ingliz tili nima uchun o'rganiladi? savoliga javob tariqasida qo'llanadigan termin-tushunchadir. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga ingliz tili (1) amaliy maqsad, (2) umumta'limiy maqsad, (3) tarbiyaviy maqsad va (4) rivojlantiruvchi maqsadda o'rgatiladi. Ingliz tili o'qitishning amaliy maqsadiga erishish yo'lida umumta'lim maktab kursida ingliz tili o'rgatishning yakuniy amaliy maqsadini tinglab tushunish va o'qish, ya'ni chet tilda tinglab va o'qib axborot olishdir. Oraliq amaliy maqsad turlicha talqin etiladi: I sinfda tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad hisoblanadi; II-IV sinflarda ham tinglab tushunish va gapirish amaliy maqsad, o'qish va yozuv og'zaki nutqda o'rganilgan til materialini takrorlash va mustahkamlash vositasi; V-VI sinflarda nutq faoliyati turlaridan tinglab tushunish, gapirish va o'qish - oraliq amaliy maqsad, yozuv -amaliy vosita; VII-IX sinflarda tinglab tushunish va o'qish - amaliy maqsad, gapirish va yozuv - vosita.

N.Galskova va Z.Nikitenkolar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darsliklar yaratilishida tillararo interferensiyaga ko'p e'tibor qaratilishi natijasida o'quvchilarning yosh xususiyatlari (ularning motivatsiyasi va ijtimoy-madaniy- tajribalari) inobatga olinmayotganligini ta'kidlashmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» inson manfaatlari ustuvorligi, uning zamon talablariga mos holda ortib borayotgan ehtiyoj va qiziqishlari, imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarish hamda amalga oshirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish, o'sib kelayotgan avlodning ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, o'z filkriga, o'zining qarashlari va qat'iy grajdaniq (fuqarolik) pozitsiyasiga ega bo'lgan, har tomonlama yetuk va mustaqil fikrlaydigan shaxsni shakllantirish maqsadida qabul qilingan. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzlusiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxs - fuqaroni shakllantirishni nazarda tutadi<sup>1</sup>. Bugunga kelib 1-4 sinflar uchun shu yoshdagi bolalarning psixologikfiziologik o'ziga xosliklarini hisobga olgan o'quv dasturlari va darsliklarni

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. – T.: Sharq, 1997. – 42 b.



shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi va kompetensiyaviy yondashuvga asosan tanqidiy qayta ko'rib chiqilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi 124 sonli Qarori bilan har bir ta'lim bosqichida chet tillarni bilish darajasining aniq mezonlarini nazarda tutuvchi uzlusiz ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi va 2013/2014 o'quv yildidan boshlab respublikada chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan bosqichmabosqich joriy etildi.

DTSda boshlang'ich sinf (4-sinf) bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar chet tillarni bilishning umumyevropa tizimiga o'zaro bog'liq holda olingan bo'lib, ular sodda va tushunarli shaklda berilgan. Chet tillarni bilishning boshlang'ich Al darajasi - «Kurtaklash bosqichi» (Breakthrough / Survival level / Beginner / Survival / Formulaic Proficiency / Introductory / Substitutional level of proficiency) yoki chet til egallashning boshlang'ich darajasi, deb nomlanib quyidagicha ta'riflanadi: «Aniq ehtiyojlarni qondirish maqsadida tanish kundalik ifoda birliklarini va sodda jumlalarni tushunaman va ulardan foydalana olaman. O'zimni va boshqalarni tanishtira olaman, shaxsiy tafsilotlar, ya'ni yashash manzilim, tanish insonlarim va o'zimga tegishli bo'lgan buyumlar haqidagi savollarga javob bera olaman va shunday savollar bilan murojaat eta olaman. Suhbatdosh shoshmasdan, aniq gaplashsa va yordam berishga xayrixoh bo'lsa, sodda usulda axborot almasha olaman».

CEFR - Yevropa mamlakatlarida o'quv reja, dustur va imtihon savollarini ishlab chiqish hamda darsliklar yaratish uchun tayanch yo'riqnomalar bo'lib, unda til o'rganuvchilar tildan foydalanish va samarali faoliyat olib borish uchun nimalarni o'rganishlari, qanday bilim va malakalarni qay darajada egallashlari lozimligibayon qilingan<sup>2</sup>.

Mazkur standart asosida O'zbekistonda ingliz tili o'qitishda o'quvchining lingvistik bilimlar to'plashiga emas, balki nutqiy (kommunikativ) va madaniy (madaniyatlararo) malakalar (kompetensiyalar)ning egallanishiga e'tibor kuchaytiriladi, ingliz tilini kommunikativ faoliyat ko'rsatish, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyani egallashga mo'ljallangan integrativ yondashuvvasosida o'rgatish va kommunikativ-kumulyativ metoddan foydalanish tavsiya etiladi.

O'quv vositalari o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ta'limiy ko'prik bo'lib, unda o'quv jarayoni sodir bo'ladi. Ushbu vosita yordamida jamiyatda kelajak avlod shakllanadi. Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Demokratik jamiyat talabi esa mustaqil va ijodiy fikrlashga, kreativ va tashabbuskor bo'lishga ruhlantiruvchi, egallangan bilim, malaka va ko'nikmalarga tayanib turli

<sup>2</sup>. Common European Framework of Reference for Languages:Learning, Teaching, Assessment. Language Policy.Unit, Strasbourg. 2010. – 274 p. Electron resource: [http://www.coe.intA/dg4/Lingistics/Sourse/CEFR\\_EN.pdf](http://www.coe.intA/dg4/Lingistics/Sourse/CEFR_EN.pdf).Access date: 6.06.2018.



vaziyatlarda muammoning yechimini oqilona hal eta olish kompetensiyalarga ega raqobatbardosh va moslashuvchan mutaxassis sifatida komil insonni tarbiyalashdir<sup>3</sup>.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lismaktab o'quvchilari uchun darslik

majmualar yaratishda nazariyani amaliyatga tadbiq etish bo'yicha ijobiy ishlar amalgalashirilmoqda. Respublikamizda boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda Susannsah Reed, Susan Rriverswith tomonidan yaratilgan Guess what! student's book and workbooks 1,2,3,4 darslik-majmualaridan foydalanilmoqda.

Ta'lismifatini rivojlantirishda mashg'ulotlarda o'qituvchilar dars jarayonidainnovatsion texnologiyalardan foydalanishlari, albatta, samarali natijalarni beradi.

### XULOSA

Xulosa qilib shuni aytganda, yuqori darajadagi umumiy-kasbiy madaniyatga, ijtimoiy faoliyka, mustaqil fikrlashga, o'z vazifalarini qiyinchiliksiz hal qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan etuk mutaxassislarni tarbiyalash uchun bugungi kunda pedagog o'qituvchilarimiz zamonaviy yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari ta'limgarbiyaning sifat va samaradorligini oshirishning asosiy omili ekanligini, buni esa davr talab etayotganligini tushunib etishlari lozim.

### REFERENCES:

1. "Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish. Tajibayev G.Sh. Namangan-2019.
- 2.O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lismizining Davlat ta'lism standartlari. – Xalq ta'limi. – № 4. – 2013. – B. 4-32.
3. O'zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi. – T.: Sharq, 1997. – 42 b.
4. Umumiy o'rta ta'lismaktablari uchun ingliz tili o'quvdasturi.Tuzuvchilar:J.J.Jalolov,M.T.Irisqulov. – Xalq ta'limi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.
5. Common European Framework of Reference for Languages:Learning, Teaching, Assessment. Language Policy.Unit, Strasbourg. 2010. – 274 p. Electron resource: [http://www.coe.intA/dg4/Lingustics/Source/CEFR\\_EN.pdf](http://www.coe.intA/dg4/Lingustics/Source/CEFR_EN.pdf).Access date: 6.06.2018.
6. Архипов В.И. Школьные учебники иностранного языка новогопоколения: от теории к практике составления. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАОИ.Л. Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-214.
7. Дронов В.П., Копылова В.В. Учебно-методическое обеспечение сегодня – переход к новым формам. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАО Инессы Львовны Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-212.

<sup>3</sup> Архипов В.И. Школьные учебники иностранного языка новогопоколения: от теории к практике составления. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАОИ.Л. Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-214.



8. Brown.D.H. Teaching by principles. An Integrative Approach to Language Pedagogy. -NY.: PEARSON Longman, 2007. – 570 p.
9. Koprowski M. Investigating the usefulness of lexical phrases in contemporary course books. ELT Journal Volume 59/4 October 2005. – P. 322-
10. Архипов В.И. Школьные учебники иностранного языка новогопоколения: от теории к практике составления. // Сборник статей международной научно-практической конференции памяти академика РАОИ.Л. Бим. – М.: ТЕЗАУРУС, 2013. – С. 211-214.
- 11.Talipov, N. X., & Aliev, N. S. (2021). The importance of perspective in teaching art to future fine arts teachers. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 10(2), 97-103. DOI: <http://dx.doi.org/10.5958/2278-4853.2021.00051.3>.